

TIL VA TAFAKKUR O'ZARO MUNOSABATLARINING LINGVISTIK TAHLILI

Qurbonaliyeva Sabohat Ulug'bek qizi

Termiz davlat pedagogika institute Tillar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi.

Jo'ranazarova Nigora Qurbonboy qizi

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi.

Anotatsiya: *Ushbu maqolada til va tafakkur o'rtasidagi murakkab va ko'p qirrali munosabatlar lingvistik nuqtai nazardan tahlil etiladi. Til inson tafakkurining asosiy ifoda vositasi sifatida qaraladi va tafakkur jarayonlarining shakllanishida tilning o'rni alohida yoritiladi. Muallif til va tafakkur o'zaro bog'liqligini ko'rsatish maqsadida V. fon Humboldt, L. Vigotskiy va A. Leontyev kabi olimlarning qarashlarini tahlil qiladi hamda zamonaviy psixolingvistik yondashuvlar asosida fikr yuritadi. Shuningdek, maqolada turli tillarda fikrlash farqlari, til strukturasi va mantiqiy tafakkur o'rtasidagi uyg'unlik holatlari misollar bilan asoslanadi. Xulosa qismida til va tafakkur tadqiqotlarining tilshunoslikda tutgan o'rni va kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun yo'nalishlar ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *Til va tafakkur, lingvistik tahlil, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, ichki nutq, tafakkur jarayoni, til funksiyasi, metafora, konseptual tahlil, lingvistik nisbiylik, tafakkur modeli, semiotika, o'zaro ta'sir, inson tafakkuri, madaniyatlararo tafakkur.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются сложные и многогранные отношения между языком и мышлением с лингвистической точки зрения. Язык рассматривается как основное средство выражения человеческого мышления, а его роль в формировании мыслительных процессов особо подчеркивается. Автор анализирует взгляды таких ученых, как В. фон Гумбольдт, Л. С. Выготский и А. Н. Леонтьев, чтобы показать взаимосвязь языка и мышления, а также рассуждает на основе современных психолингвистических подходов. Кроме того, в статье приводятся примеры различий в мышлении на разных языках, рассматривается связь между языковой структурой и логическим мышлением. В заключении подчеркивается значимость исследований языка и мышления в лингвистике и намечаются перспективные направления для дальнейших научных изысканий.*

Ключевые слова: *язык и мышление, лингвистический анализ, психолингвистика, когнитивная лингвистика, внутренняя речь, процесс мышления, функция языка, метафора, концептуальный анализ, лингвистическая относительность, модель мышления, семиотика, взаимодействие, человеческое мышление, межкультурное мышление.*

Annotation: *This article explores the complex and multifaceted relationship between language and thought from a linguistic perspective. Language is viewed as the primary means of expressing human cognition, and its role in the formation of thought processes is particularly emphasized. The author analyzes the views of scholars such as Wilhelm von Humboldt, Lev Vygotsky, and Alexei Leontiev to illustrate the interconnection between language and thought, while also reflecting on modern psycholinguistic*

approaches. Additionally, the article presents examples of how thinking differs across languages and discusses the harmony between language structure and logical reasoning. In conclusion, the importance of language-thought research in linguistics is highlighted, and directions for future academic studies are proposed.

Keywords: *language and thought, linguistic analysis, psycholinguistics, cognitive linguistics, inner speech, thought process, language function, metaphor, conceptual analysis, linguistic relativity, model of thinking, semiotics, interaction, human cognition, intercultural thinking.*

Til va tafakkur — inson ongining ikki ajralmas qismi bo'lib, ular o'zaro bevosita bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi. Inson tafakkuri til orqali ifodalanadi, til esa tafakkur asosida mazmun kasb etadi. Shu bois, tilshunoslik, psixologiya, falsafa, biologiya, mantiq kabi ko'plab fanlarda bu ikki tushuncha orasidagi munosabatlarni tadqiq qilish doimiy ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Ushbu maqolada til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik lingvistik nuqtai nazardan o'rganiladi hamda bu yo'nalishdagi nazariy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Til inson tafakkurining tashqi ko'rinishi, uni ifodalash vositasi hisoblanadi. Tafakkur orqali vujudga kelgan tushuncha va g'oyalar til yordamida og'zaki yoki yozma shaklda ifodalanadi. Tilshunoslikni u yoki bu fanlar sinfiga kiritishda bu fan o'rganadigan obyektining tabiati asos qilib olinadi. Til kishilarning eng muhim aloqa vositasi, bilimlarni saqlovchi va kelajak avlodga yetkazuvchi vositadir. Ana shu vazifalarini e'tiborga olganda, til-ijtimoiy hodisadir. Chunki u jamiyat uchun xizmat qiladi. Ikkinchidan ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan til muayyan fizik va fiziologik jarayonlar asosida moddiylashadi. Uchunchidan Til va tafakkur o'zaro ajralmasdir. Til fikrni, shakllantiruvchi va ifodalovchi moddiy vositadir. Bu jihatdan til va tafakkur muayyan shaklni o'zida namoyon etadi. Tilshunoslikni ana shu jihatdan mantiq, psixologiya fanlari tizimiga kiritish mumkin bo'ladi. To'rtinchidan til uzluksiz rivojlanib, takomillashib boruvchi hodisadir. Bu jihatdan u jonli organizmga o'xshaydi. Ana shu xususiyatlarini o'rganish jihatidan tilshunoslik biologiya fani bilan umumiy belgilarga ega ekanligini isbotlaydi. Lekin tafakkur bilan tilni aynan bir xil, bir-biriga o'xshash narsa deb tushunish xatodir. Tafakkur – tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishining eng yuksak shaklidir. Til esa tafakkurni so'zlar, so'z birikmalari va jumlar orqali ifolaydi. Til qonunlari bilan tafakkur qonunlari bir-biriga teng kelmaydi. Shuning uchun ham til grammatikaning o'rganish obyekti hisoblansa, tafakkur mantiq ilmining o'rganish ob'jektidir. [1,41-42b]. V. fon Humboldtning fikricha, til — bu nafaqat fikrni ifodalovchi vosita, balki fikrning o'zini shakllantiruvchi omildir. Demak, til tafakkur shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. L. S. Vigotskiy va A. N. Leontyev kabi rus olimlari til va tafakkur orasidagi o'zaro munosabatni psixologik jarayon sifatida o'rganagan. Ularning tadqiqotlarida aytilishicha, bola avval tilni eshitadi, so'ng esa til vositasida fikrlashni o'rganadi. Bu holat til va tafakkur o'zaro rivojlanishini ko'rsatadi. Psixolingvistika fanida bu jarayon ichki nutq orqali izohlanadi — inson avvalo o'z ongida til vositasida fikr yuritadi, keyin esa uni tashqi nutqga aylantiradi [2,120-

135b].Lingvistik nisbiylik nazariyasiga ko'ra, har bir tilda dunyoni ifodalash uslubi o'ziga xosdir. Bu esa o'z navbatida, turli tillarda so'zlashuvchi insonlarning fikrlash tarziga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ingliz tilida vaqt aniq grammatik vositalar orqali ifodalanadi, bu esa bu tilda so'zlovchilar tafakkurida vaqtga bo'lgan e'tiborni kuchaytiradi. O'zbek tilida esa bu ifoda ko'proq kontekstga bog'liq bo'ladi. Zamonaviy lingvistikada kognitiv tilshunoslik til va tafakkur munosabatini o'rganishda muhim o'ringa ega[3,17-25 b].Kognitiv tilshunoslik atamasining mazmuni inglizcha «cognitive — bilishga oid»so'zi bilan bog'liq.Ma'lumoi, dunyoni,voqelikni bilish,uni idrok etish oddiy hodisa emas.Ayrim hollarda bilishni to'g'ridan- to'g'ri fahmlash,tushinish harakatlari bilan bog'lab quyishadi.Ammo hayvonlarga ham qisman (oddiy shaklda bo'lsa ham) fahmlash,tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati xos ekanligi ma'lum.Shu sababli bilish faoliyati haqida gap ketganda, faqatgina cogitation (lotincha) ya'ni «aql-tafakkur» hodisasini tasavvur qilish bilan cheklanmasdan ,balki cogitatorium—tafakkur faoliyati shaxsini hamda bu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi nomenal hodisalarni ham inobatga olish kerak bo'ladi.Shuni unutmash lozimki,tafakkurning uzi insonning maqsadli faoliyati natijasida hosil bo'lib,u insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida voqelikka nisbatan bildirilayotgan faol munosabatning ifoda tomonidir[4,10b].Bu yo'nalishda til tushunchalarning shakllanishi va saqlanishida qanday rol o'ynashini tahlil qiladi. Til — inson tajribasi va bilimlarini kodlovchi vosita sifatida qaraladi. Ayniqsa metafora, ramz va konseptlar orqali fikr ifodalanishining tahlili kognitiv lingvistikada asosiy o'rinda turadi.Hozirgi vaqtda esa kognitiv metaforalar nazariyasi ko'plab sohalarga tadbiiq qilinga bo'lib,bilish, tushunchasini kategoriyalashtirish ,konseptuallashtirish,baholash va olamni tushintirishning samarali usullaridan biri bo'lib kelmoqda.Shuningdek,kognitiv metaforalar har bir millat vakilining tafakkuri mahsuli bo'lganligi sababli unda o'sha xalqning lingvomadaniy merosi yoxud izlari ham yashiringan bo'ladi.Ya'ni har bir konseptual metaforani hosil qiluvchi konseptlardan til va madaniyat uyg'unligi yaqqol ko'zga tashlanadi[5,37b].

Xulosa qilib oladigan bo'lsak,til va tafakkur o'zaro bog'liq bo'lgan murakkab tizimlar hisoblanadi. Til inson tafakkurining mahsuli bo'lish bilan birga, uni shakllantiruvchi, yo'naltiruvchi omil hamdir. Mazkur maqolada turli nazariy yondashuvlar asosida til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlar yoritildi. Kelgusidagi tadqiqotlarda bu masala madaniyatlararo kontekstda, zamonaviy texnologiyalar ta'sirida yanada chuqurroq o'rganilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Z.T.Xolmonova,«Tilshunoslikka kirish»,Toshkent–2007,(41-42-betlar).
- 2.A.A.Abduazizov,«Kognitiv tilshunoslik asoslari»,Fan nashriyoti,Toshkent–2019,(120-135-betlar).
- 3.Yusupova.M,«Til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlar»,Ilm ziyo nashriyoti,Toshkent–2024,(17-25-betlar).

4.Shaxriyor Safarov,«Kognitiv Tishunoslik»,«Sangzor»nashriyoti,Jizzax–2006,(10-bet).

5.Jo'rayeva Bibish va Sharipova Ozoda, "Til va imlo muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari,Toshkent–2023,(37-bet).